

KITOB TUMANI GEOGRAFIK JOYLASHUVI VA RELYEF XUSUSIYATLARI

Sultonov Shuxrat Adxamovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti,

O'zbekiston, Shahrisabz shahri

Raximova Dildora Zubaydulla qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

O'zbekiston, Shahrisabz shahri

Abdiyeva Gulnoza Shamsiddin qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

O'zbekiston, Shahrisabz shahri

Annotatsiya. Ushbu maqolada Kitob tumani geografik joylashuvi va relyef xususiyatlari, geologik jarayonlar ta'sirida relyef xossalarini o'zgarishi, tabiiy jarayonlar kechishi haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: geologiya, tog', relyef, yonbag'ir, qo'rg'oshin, rux, gil, qum, shag'al, daryo, vodiy, gilli jins, marmar, granit, kon.

GEOGRAPHICAL LOCATION AND TOPOGRAPHICAL CHARACTERISTICS OF KITOB DISTRICT

Sultanov Shukhrat Adkhamovich

Associate Professor of the Shakhrisabz State Pedagogical Institute,

Uzbekistan, Shakhrisabz city

Raximova Dildora Zubaydulla kizi

student of the Shakhrisabz State Pedagogical Institute

Uzbekistan, Shakhrisabz city

Abdiyeva Gulnoza Shamsiddin kizi

student of the Shakhrisabz State Pedagogical Institute

Uzbekistan, Shakhrisabz city

Abstract. Abstract. This article provides information on the geographical location and relief characteristics of the Kitab district, changes in relief properties influenced by geological processes, and the occurrence of natural processes in the area.

Keywords: geology, mountain, relief, slope, lead, zinc, clay, sand, gravel, river, valley, clay rock, marble, granite, deposit.

ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ПОЛОЖЕНИЕ И ТОПОГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КИТАБСКОГО РАЙОНА

Султанов Шухрат

доцент Шахрисабзского государственного педагогического института,

Узбекистан, город Шахрисабз

Рахимова Дилдора

*студент Шахрисабзского государственного педагогического института
Узбекистан, город Шахрисабз*

Абдиева Гулноза

*студент Шахрисабзского государственного педагогического института
Узбекистан, город Шахрисабз*

Аннотация. В данной статье представлена информация о географическом положении и особенностях рельефа Китабского района, изменениях свойств рельефа под влиянием геологических процессов и возникновении природных процессов в этом районе.

Ключевые слова: геология, гора, рельеф, склон, свинец, цинк, глина, песок, гравий, река, долина, глинистая порода, мрамор, гранит, месторождение.

Kirish. Kitob tumani O'zbekiston Respublikasining Qashqadaryo viloyatidagi tuman bo'lib viloyatning shimoliy-sharqiy qismida joylashgan. 1926-yil sentabrda tashkil etilgan. 1962-yil 24-dekabrda Shahrisabz tumani bilan birlashtirilgan. 1968-yil 25-dekabrda qayta tuzildi va hozirda viloyatning Chiroqchi, Shahrisabz tumanlari, Samarqand viloyati va Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh. Umumiy maydoni - 1,75 ming km². Aholisi – 287,7 ming kishi (2025-yil holatiga ko'ra). Kitob tumanida 1 shahar (Kitob), 13 ta shaharcha - Alaquo'yliq, Bektemir, Beshtarak, Rus qishloq, Baxt darvozasi, Obikanda, Panji, Sariosiyo, Sevaz, Xoji, Varganza, Yakkatut, Yangiobod), 60 dan ortiq (rasmiy ma'lumotlarda) mahalla va 26 ta mahalla punktlari bor (2025-yil holatiga ko'ra). Markazi – Kitob shahri. Tuman hududidan Katta O'zbekiston trakti o'tgan. Taxtaqoracha dovoni (balandligi 1788 m) esa respublika janubini qo'shni hududlar bilan bog'laydi.

Asosiy qism. Qashqadaryo viloyatida ko'plab tumanlar mavjud bo'lib, ularning har biri o'zgacha ko'rinishi, geologik tuzilishi va relyefidagi farqlar bilan ajralib turadi. Hudud o'zining relyef tuzilishi, tabiati, go'zalligi bilan alohida ta'rifga loyiqdar, ko'p qismi tog'li va tog' oldi hududlaridan iborat.

Hudud nomi fors-tojikcha kift yelka, ob – suv so'zlaridan kelib chiqqan deb ta'riflanadi. Kitob tumani o'rta asrlarda G'arb bilan Sharq mamlakatlarini bir-biriga bog'lagan yirik karvon yo'li yoqasida, Samarqand va Shahrisabz (eski Kesh) ga yaqin joylashganligi uchun yirik shaharga aylangan.

Tuman relyefi tog'li va tog' oldi tipida bo'lib, asosan Zarafshon tizmasining janubiy-g'arbiy tarmoqlari va yon bag'irlarida joylashgan.

Tumanni mutloq balandliklari. Ko'pincha 1300 - 2700 metr oralig'ida. Tuman shimoli-sharqiy va sharqiy qismlarida balandligi 2500 - 2700 metrgacha yetadigan cho'qqilar mavjud. Masalan, Kitob geologiya milliy bog'i hududidagi eng baland nuqta - Bursixirmon tog'i (2061 metr).

Nisbiy balandlik farqlari: 500 - 1500 metrgacha (ya'ni, bir joydan ikkinchisiga balandlik o'zgarishi juda keskin). Bu relyefni chuqur soylar, jarliklar va tik yon bag'irlar bilan ajratib turadi.

Relyef xususiyatlari. Yuqori qismlarda - keskin bo'lingan, qoyali (qattiq tog' jinslari, tik devorlar, jarliklar). O'rta va pastki qismlarda - o'rta tog'li, biroz yumshoqroq, ammo baribir tik yon bag'irli struktura hukmronlik qiladi.

Tog' oldi zonalari (Kitob shahri atrofida, Shahrisabz-Kitob vodiysi tomon) - nisbatan tekisroq, tepaliklar, kichik tepaliklar va kengroq vodiylar bilan (balandligi 600–1200 metr atrofida) bog'lanib ketgan.

Asosiy tog' tizmalari va joylashuvi:

Zarafshon tizmasining janubiy tarmoqlari (jumladan, Qoratog', Qoraxon tog'lari).

So'qar tog'lari (Kitob shahridan taxminan 30–35 kilometr sharqda, shimoldan Qoraxon tog'lari bilan o'ralgan).

Tuman shimoliy chegarasida baland Hisor va Zarafshon tog'lari (4000 metrgacha cho'qqilar) joylashgan bo'lib, ular sovuq havo oqimlarini to'sib, tuman iqlimini nisbatan mo'tadil qiladi.

Muhim hududlar misolida:

Kitob davlat geologiya qo'riqxonasi (hozirgi Kitob geologiya milliy tabiat bog'i) relyefi - o'rta tog'li, keskin kesilgan, yuqori qismida qoyali, pastki qismida biroz tekisroq. Mutlaq balandlik 1300–2650 m. Qo'riqxonadan oqib o'tadigan soylar (Obisafit, Xo'jaqo'rg'on, Zinzilbon, Novobak, Qushnov, Qizilolma va boshqalar) chuqur va go'zal daralar hosil qilgan. Bu yerda paleozoy davriga oid noyob geologik kesmalar (470–330 mln yil oldingi cho'kindi jinslar) ochiq holda ko'rinadi.

Taxtaqoracha dovoni - tuman hududidan o'tgan, balandligi 1788 m, respublika janubini shimol bilan bog'lovchi muhim yo'l.

Shahrisabz-Kitob botig'i tomon (janub va g'arb) relyef keskin pasayib, tekisroq vodiylarga o'tadi.

Baland tog'lar tuman hududini sovuq havo oqimidan to'sib turgani uchun tuman iqlimi viloyatda eng mo'tadil. O'rtacha harorat yanvar da 0,8°, iyulniki 28°. Yiliga o'rtacha 545 mm yog'in tushadi. Yog'inning 85% bahor va qish fasllariga to'g'ri keladi. Tuman hududidan Qashqadaryoning irmoqlari - Kichikjar, Oqsuv, Jinnidaryo, Oqdaryo oqib o'tadi.

Tuprog'i Shahrisabz-Kitob botig'ida tipik bo'z, daryo bo'yida allyuvial bo'z, tog'larda qo'ng'ir tuproq. Efemer o'simliklar hamma joyda uchraydi. Suv bo'ylarida qamish, yulg'un o'sadi. Tog' yon bag'irlarida archa, bodom, do'lana, olma, tol, yong'oq, pista, zarang daraxtlari va xilma-xil butalar o'rmon hosil qilgan. Tog' yon bag'irlari chorva mollari uchun yozgi yaylov. Tulki, bo'ri,

chiyabo'ri, bo'rsiq, ayiq, qobon, tog' echkisi, arhar; sudraluvchilar; kaklik, chil, bulbul va boshqa yashaydi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdak, tog'lar bilan bir qatorda, tuman hududida ko'plab tepaliklar ham mavjud. Bu tepaliklar tog'larning yemirilishi natijasida hosil bo'lgan. Tumanning daryo vodiylarida va tog' etaklarida tekisliklar uchraydi. Bu tekisliklar asosan allyuvial yotqiziqlardan tashkil topgan. Tumanning hududidan bir nechta daryolar oqib o'tadi. Bu daryolar o'z o'zanlari bo'ylab chuqur vodiylar hosil qilgan. Bu daryolar Zarafshon tizmasidan boshlanadi va Qashqadaryo havzasiga quyiladi.

1. *Oqsuv daryosi*. Kitob tumanidagi eng katta daryo hisoblanadi. U Zarafshon tizmasidan boshlanadi va tumanning markaziy qismidan oqib o'tadi. Oqsuv daryosi Qashqadaryo daryosining asosiy irmog'i hisoblanadi.

2. *Jinnidaryo*. Oqsuv daryosining irmog'i hisoblanadi. U ham Zarafshon tizmasidan boshlanadi va tumanning shimoliy qismidan oqib o'tadi.

3. *Shirin daryo*. Oqsuv daryosining irmog'i hisoblanadi. U tumanning janubiy qismidan oqib o'tadi. Tog'li hududlarda so'qmoqlar va daralar ko'p uchraydi. Bu relyef shakllari suv eroziyasi natijasida hosil bo'lgan.

Kitob tumanining relyefi hududning iqtisodiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tog'lar yaylovlar uchun qulay sharoit yaratadi, daryo vodiylari esa qishloq xo'jaligi uchun suv bilan ta'minlaydi. Relyef turizm va rekreatsiya uchun ham imkoniyatlar yaratadi.

Kitob tumanining relyefini o'rganish uchun turli xil usullardan foydalaniladi, jumladan, aerokosmik suratga olish, geodezik o'lchashlar, geologik tadqiqotlar va geologik tahlil.

Jumladan tuman hududidagi Kitob geologiya milliy tabiat bog'i O'zbekistonning geologik va tabiiy merosining bebaho qismidir. Bu yerda paleozoy davrining uzluksiz stratigrafik kesmalari saqlangan bo'lib, ular Yer tarixini va hayot evolyutsiyasini o'rganishda muhim ilmiy resurs vazifasini o'taydi. Qo'riqxonaga nafaqat ilmiy markaz, balki sayyohlar uchun ham noyob tabiat yodgorligidir.

Kitob tumani tog'li hudud bo'lganligi sababli, bu yerda turli xil tog' konlari mavjud. Bu konlar tumanning geologik tuzilishi va tarixiy rivojlanishi bilan bog'liq.

Hududda tarqalgan asosiy foydali qazilma konlarini quyidagicha tasniflash mumkin.

1. Ohaktosh konlari: Kitob tumanida ohaktosh konlari keng tarqalgan. Ohaktosh qurilishda, sement ishlab chiqarishda va boshqa sohalarda ishlatiladi.

2. Qum-shag'al aralashmasi konlari: Daryo vodiylarida qum-shag'al aralashmasi konlari mavjud. Bu materiallar yo'l qurilishida, beton ishlab chiqarishda va boshqa qurilish ishlarida ishlatiladi.

3. Gil (gilli jinslar) konlari: Tumanda gil konlari ham mavjud bo'lib, ular g'isht, keramika va boshqa qurilish materiallari ishlab chiqarishda ishlatiladi.

4. Qo'rg'oshin va rux konlari: Kitob tumanida qo'rg'oshin va rux konlari topilgan. Bu metallar turli sanoat sohalarida, jumladan, akkumulyatorlar ishlab chiqarishda, metall qoplamalarida va boshqa maqsadlarda ishlatiladi.

5. Marmar konlari: Tumanda marmar konlari ham mavjud bo'lib, ular qurilishda va bezak materiallari sifatida ishlatiladi.

6. Granit konlari: Granit konlari ham uchraydi, ular qurilishda, yodgorliklar yasashda va boshqa maqsadlarda ishlatiladi.

Kitob tumanidagi konlarning aksariyati o'rganilgan va zaxiralari aniqlangan. Ba'zi konlar hozirda ishlatilmoqda, boshqalari esa kelajakda ishga tushirilishi mumkin. Tuman hududida yangi konlarni qidirish va razvedka qilish ishlari davom ettirilmoqda.

Kitob tumanidagi tog' konlari tumanning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Mahalliy qurilish materiallari sanoatini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va tuman budjetiga daromad keltirish imkoniyatlari mavjud.

Tog' konlarini qazib olish atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun konlarni qazib olishda ekologik xavfsizlik choralarini ko'rish, jumladan, tuproqni qayta tiklash, suv havzalarini muhofaza qilish va chiqindilarni to'g'ri utilizatsiya qilish hozirgi davrni asosiy omilidir.

Xulosa. Umuman, Kitob tumani relyefi keskin vertikal zonallikka ega hududir, pastki qismdagi vodiylardan yuqoriga chiqqan sari tog' jinslari mustahkamligi ortib boradi. Bu xususiyat tufayli tuman tabiiy go'zalligi yuqori, ekoturizm uchun juda qulay (tog' yurishlari, geologik ekskursiyalar, manzarali joylar).

Kitob tumani Qashqadaryo viloyatining istiqbolli hududlaridan biri hisoblanadi. Uning tabiiy resurslari, qulay geografik joylashuvi va mehnatkash aholisi tumanning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Красная книга Узбекской ССР. Ташкент. 1938.
2. Кашкадарьинская область. Том 1 природа. Ташкент. 1959.
3. Ўзбекистон ССРда табиатни қўриқлаш ҳақида қонун. Тошкент. 1974.

4. Файзуллаев.М.А. Жанубий Ўзбекистонда аграр-индустриал циклининг шаклланиши ва ривожланиши. Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 2015, 46, 103-105.

5. Fayzullayev M.A., Nurmatov A.U., Nurmatov N.E. Ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda geografik yondashuvlar // "Yangi o'zbekistonda intellektual salohiyatli kadrlar tayyorlashda bo'lajak pedagoglarning roli" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ShDPI 21-22-may, 2025-yil. B. 1693-1700.

6. Maqsud Fayzullayev, Shuxrat Sultonov, Amirjon Xujaqulov. Qashqadaryo viloyati shimoliy-sharqiy hududlarining tabiiy-geografik zonalari va tog 'jinslarining rang-barangligi. ACTA NUUZ. 3-Том. 3.1. 1. 251-253-betlar.

7. Navotova D.I. Internal Differences In The Use Of Land Resources In The Agriculture Of Kashkadarya Region//Eurasian Journal of History, Geography and Economics. Volume 16. Belgiya. 2023.P.100-104.

8. Nazarov M.G. Qashqadaryo viloyatining antropogen landshaftlarini tasniflashning ayrim masalalari // Ilm-fan va innovatsiya. Ilmiy- amaliy konferensiya materiallari. -Qarshi, 2013. –B.71-74.

9. Sultonov Sh.A., Sultonov N.A. Kitob geologik qo'riqxonasi hududida tarqalgan paleontologik yotqiziqlar joylashuvi haqida qisqacha tahlil. Educational Research in Universal Sciences. -VOLUME 3 ISSUE 12 DECEMBER 2024, https://t.me/Erus_uz, 2024-yil. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14499481>

10. Sultonov Sh.A. Qashqadaryo viloyati tog'li hududlarida foydali qazilmalarni geografik tarqalishi. Экономика и социум №3(130)-1 2025, www.iupr.ru. ЭС-2025-030076, ISSN 2225-1545.

11. Sultonov Sh.A., Navotova D.I., Raximova D.Z. Kitob geologiya milliy tabiat bog'i hududida tarqalgan flora hamda faunalar tarqalishi. Экономика и социум №12(139). www.iupr.ru. ЭС-2025-120641.